

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDUTURAPOVA DILDORA FARXODJON QIZI

**IQTISODIYOTNI ISTIQBOLLI RIVOJLANTIRISHDA SUG'URTA
MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in Economic Sciences**

Abduturapova Dildora Farxodjon qizi

Iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirishda sug‘urta munosabatlarini
takomillashtirish.....3

Абдутурапова Дилдора Фарходжон кизи

Совершенствование страховых отношений в условиях перспективного
развития экономики.....27

Abduturapova Dildora Farkhodjon kizi

Improving insurance relations in the context of promising economic
development.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDUTURAPOVA DILDORA FARXODJON QIZI

**IQTISODIYOTNI ISTIQBOLLI RIVOJLANTIRISHDA SUG'URTA
MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3241 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Karlibayeva Raya Xojabayevna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Tuxliyev Bozor Karimovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Azimov Rustam Sodiqovich
iqtisodiyot fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: **Toshkent moliya instituti**

Dissertatsiya himoyasi 2024-yil "____" _____ kuni soat ____da Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 232-54-21; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (71) 232-54-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" ____ kuni tarqatildi.

(2024-yil "____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.P. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. G'afurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida tadbirkorlik subyektlari va uy xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim soha sifatida sug'urtaning ahamiyati oshib bormoqda. Xalqaro yirik qayta sug'urta qilish kompaniyasi "Swiss Re Institute"ning hisobotiga ko'ra, "2022-yil boshida jahonda yalpi sug'urta mukofoti 6,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 9,5 foizga o'sgan"¹. Mazkur o'sish pandemiya va undan keyingi davrda aholida o'lim riski tushunchasining ortishi, shuningdek, daromadlarning tobora o'sishi natijasida ta'minlangan. "2023-yilning boshiga kelib esa yalpi sug'urta mukofoti 6,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi va bu pandemiyadan so'ng bozorning barqaror holatga kela boshlaganini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar YaIMidagi sug'urta mukofotlarining ulushi 8-12 foizni tashkil qilib, xususan, 2023-yilning boshida AQShda 12 foiz, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreyada 11 foizga teng bo'lgan"². Bu esa iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirishda sug'urta munosabatlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga egaligini namoyon etmoqda.

Jahonda globallashuv jarayoni va xalqaro miqyosda raqobatning keskinlashib borishi sharoitida sug'urta munosabatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Sug'urta munosabatlarining me'yoriy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zamonaviy usullarini joriy etish, sug'urtada yangi risklarning shakllanishi va ularni sug'urtalashni yo'lga qo'yish, risklarni boshqarishni takomillashtirish, sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshligini ta'minlash, sug'urta munosabatlarini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, sug'urta mexanizmlarini qo'llashda raqamli platformalardan foydalanish jarayonlarini kengaytirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda moliyaviy munosabatlar, jumladan, sug'urta tizimidan keng va samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Milliy sug'urta bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash, sug'urta xizmatlarining talab yuqori bo'lgan yangi turlarini joriy etish, iste'molchilarning sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida sug'urta sohasida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish; sug'urta faoliyatini tartibga solish tizimini institutsional rivojlantirish; sug'urta bozori professional ishtirokchilarining to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning aktivlari sifatini yaxshilash; sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirish; aholining sug'urta savodxonligini va sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish; zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish; milliy sug'urta bozorini xalqaro va xorijiy

¹ "World insurance: inflation risks frontand centre" – Swiss Re Institute, Sigma: № 4, 2022.

² "World insurance: inflation risks frontand centre" – Swiss Re Institute, Sigma: № 4, 2022.

sugʻurta bozorlari bilan integratsiyalash”³ bu borada belgilangan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishini taʼminlash sugʻurta kompaniyalari umumiy moliyaviy barqarorlik holatining imkoniyat va yoʻnalishlarini ochib beruvchi mulkiy, moliyaviy, rentabellik va aktivlardan foydalanish yuzasidan xususiy koʻrsatkichlarni qoʻllash orqali sugʻurta munosabatlarini takomillashtirish, sugʻurta munosabatlarida risklarni baholash uchun ehtimollik va taʼsir matritsasi asosida sugʻurta kompaniyalari tomonidan maqbul hisoblangan risk darajasini ifodalovchi riskni qabul qilish mezonlarini ishlab chiqish, sugʻurta kompaniyalarining raqobatbardoshlik strategiyasini ishlab chiqish algoritmining sugʻurta bozorida raqobat muhitini taʼminlashdagi axborot, tahlil va boshqaruv jarayonlarini oʻz-oʻzini tartiblovchi mustaqil maydonlar koʻrinishida shakllantirish, Oʻzbekistonda sugʻurta munosabatlari rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillar korrelyatsiyasini ifodalovchi ekonometrik model asosida prognoz koʻrsatkichlarini ishlab chiqishga yoʻnaltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni, 2021-yil 23-oktabrdagi PQ-5265-sonli “Sugʻurta bozorini raqamlashtirish va hayot sugʻurtasi sohasini rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi, 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli “Oʻzbekiston Respublikasining sugʻurta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 780-sonli “Elektron turdagi sugʻurta xizmatlarini koʻrsatish tartibini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi toʻgʻrisidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi, 2022-yil 5-dekabrda 694-sonli “Elektron turdagi sugʻurta xizmatlarini koʻrsatish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda sugʻurta tarmoqlarini takomillashtirishga qaratilgan boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Sugʻurta xizmatlari sohasida iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish xususidagi yondashuvlar hamda amaliy jihatlarni oʻrganish boʻyicha xorijlik va MDH mamlakatlari olimlari D.Bland, N.Apergisa, T.Poufinasb, Z.Badavi, V.Rayxer, A.Mane, K.Vobliy, S.A.Osenko, O.N.Kozlova,

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli “Oʻzbekiston Respublikasining sugʻurta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/4459802>

I.S.Yaroshenko, N.B.Boltina, V.V.Shaxova, V.N.Grigoryeva, S.L.Efimova, S.V.Ermasov, N.B.Ermasova, S.L.Efimov, R.T.Yuldashev va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan⁴.

O‘zbekistonlik olimlar qatoriga T.Iminov, R.Azimov, H.Sobirov, X.Shennayev, I.Ochilov, S.Shirinov, I.Kenjaye, Q.Qo‘ldoshev, D.Baratova, N.Iminova, I.Abduraxmonov, G.Xalikulova, S.Sherov, O.Qarshiyev va boshqalarning ilmiy ishlari va tadqiqotlarida sug‘urta munosabatlarini rivojlantirishning ayrim masalalari tadqiq etilgan⁵.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi sharoitida bank-moliya, soliq va investitsiya faoliyatini modernizatsiyalash muammolarini ilmiy ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirishda sug‘urta munosabatlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda sug‘urtaning o‘rni va mohiyati, sug‘urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zaruratini aniqlash;

⁴ David Bland. Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2008, 329 pg. / N.Apergisa, T.Poufinasb. The role of insurance growth in economic growth: Fresh evidence from a panel of OECD countries. North American Journal of Economics and Finance 53 (2020) 101217. / Badawi Z.A. Model for Mutual Insurance // Islamic Banker. (1998) June. P. 18. / Райхер В.К. Общественно-исторические типы страхования. / АН СССР. – М., 1947. С. 55. / Манес А. Основы страхового дела. – М.: Анкил, 1992, С. 30. / Воблый К.Г. Основы экономии страхования. – М.: Анкил, 1993. С. 104. / Осенко С.А. Административная ответственность во сфере страхования. / С.А.Осенко // Промышленное-торговое право. 2016. № 4. С. 26-29. / Козлова О.Н., Котова О.Н., Литвинова Э.Ю. Актуальные проблемы страхования жизни и их решение с использованием маркетингового подхода. // Экономические и гуманитарные науки. 2017. № 5. С. 75-88. / Ярошенко И.С. Право социального обеспечения. Учеб. пособие. – Киев: КНЭУ, 2005. С. 232. / Болтина Н.Б. Право социальной защиты. Учеб. Пособие. Знание. 2003. С. 405. / Страховое право. Учебник для вузов. / Под ред. В.В.Шахова, В.Н.Григорьева, С.Л.Ефимова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА: Закон и право, 2002. С. 30. / Ермасов С.В., Ермасова Н.Б. Страхование. Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Высшее образование, 2008. С. 102. / Ефимов С.Л. Экономика и страхование. – М.: Церих-ПЭЛ, 1996. С. 20. Юлдашев. Введение в продажу страхования. – М., 2005. С. 6.

⁵ Iminov T.K. Sug‘urta bozori islohotlari rivojlanish bosqichida. // Xalq so‘zi. 2021-yil 8-yanvar. № 5 (7785); Azimov P.S. Иктисодиётни модернизациялаш шароитида рискларни суғурталаш методологиясини такомиллаштириш. Иктисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертация автореферати. – Т., 2022. – 20 б.; Собиров Х.Р. Суғурта: 100 савол ва жавоб. – Т.: Мехнат, 1998 йил. – 16 б.; Шеннаев Х.М., Очилов И.К., Ширинов С.Э., Кенжаев И.Ф. Суғурта иши. – Т.: Тафаккур бўстони, 2014 й. – 21 б.; Қўлдошев Қ.М. Ўзбекистонда ўзаро суғурталашнинг методологик асосларини такомиллаштириш. Иктисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Т., 2019. – 75 б.; Baratova D.A. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan hayot sug‘urtasini rivojlantirish yo‘llari. Dissertatsiya avtoreferati. iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). – Т., 2020-у.; Иминова Н.А. Управление экономическими рисками в сфере связи и информатизации. Дисс. канд. экон. наук. – Т.: ТАТУ, 2011. С. 188; Abduraxmonov I.X. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta tarmoqlarini rivojlantirishning konseptual asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Т., 2023. – 15 б.; Xalikulova G.T. Sug‘urta tizimi va uning amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Т., 2019. – 62 б.; Sherov S.R. Sug‘urta instituti va uni innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Т., 2019. – 64 б.; Қаршиев О.А. Суғурта компаниялари молиясини самарали ташкил этиш йўллари. Иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Т., 2022. – 90 б.

sug'urta munosabatlarining me'yoriy-huquqiy asoslari, rivojlanish bosqichlari va yo'nalishlarini tahlil qilish;

sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi hamda moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish jarayoni va xususiyatlarini tahlil qilish;

sug'urta munosabatlarining rivojlanishida yangi risklarning shakllanishini aniqlash va ularni sug'urtalash masalalarini tadqiq etish;

sug'urta munosabatlarini takomillashtirishda risklarni boshqarishni takomillashtirish yo'llarini ochib berish;

sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshligini ta'minlash strategiyasining algoritmini ishlab chiqish;

O'zbekistonda sug'urta munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta munosabatlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirishda sug'urta munosabatlari bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy jihatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, prognozlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'urta kompaniyalari umumiy moliyaviy barqarorlik holatini ta'minlashning imkoniyat va yo'nalishlarini ochib beruvchi mulkiy, moliyaviy, rentabellik va aktivlardan foydalanish yuzasidan xususiy ko'rsatkichlarning "almashinib turuvchi ustuvorligi" tamoyiliga asoslangan uslubni qo'llash orqali sug'urta munosabatlarini takomillashtirish asoslangan;

sug'urta munosabatlarida risklarni baholash uchun ehtimollik va ta'sir matritsasi asosida sug'urta kompaniyalari tomonidan maqbul hisoblangan risk darajasini ifodalovchi riskni qabul qilish mezonlarini ishlab chiqishda riskni maqbul boshqarishning $0 \leq 0,25$ chegarasida "riskni qabul qilish", $0,26 \leq 0,5$ chegarasida "riskni o'tkazish", $0,51 \leq 0,75$ chegarasida "riskni yumshatish", $0,75 \leq 1,0$ chegarasida "riskdan qochish" strategiyalarini qo'llashning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

"Alskom sug'urta kompaniyasi" AJning raqobatbardoshlik strategiyasini ishlab chiqish algoritmi sug'urta bozorida raqobat muhitini ta'minlashdagi axborot, tahlil va boshqaruv jarayonlarini o'z-o'zini tartiblovchi mustaqil maydonlar ko'rinishida shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

O'zbekistonda sug'urta munosabatlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar korrelyatsiyasini ifodalovchi ekonometrik model asosida tarmoq sof foydasi hajmi dinamikasining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda sug'urta munosabatlarini takomillashtirishda sug'urta kompaniyalarining umumiy moliyaviy barqarorlik holatini likvidlik ko'rsatkichlari,

qoplash koeffitsiyenti, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari va rentabellik ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda aniqlash taklif etilgan;

ISO/IEC 31010:2019 ga muvofiq ehtimollik va ta'sir matritsasi asosida "Sug'urta kompaniyalarining me'yoriy-huquqiy bazaga asoslangan risklarni boshqarish tizimining konseptual modeli" takomillashtirilgan;

sug'urta kompaniyalarining ustuvor yo'nalishlari va boshqa tarmoqlar bilan o'zaro aloqalarini kuchaytirishga zamin yaratuvchi chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;

sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshlik strategiyasini ishlab chiqish algoritmda sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini ta'minlashning moliyaviy usullar tizimi taklif etilgan;

sug'urta munosabatlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, sug'urta kompaniyalari va unga aloqador korxonalarining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xizmat ko'rsatish korxonasida, xususan, sug'urta kompaniyalarida iqtisodiy faoliyatning rivojlanish mexanizmlari samaradorligini oshirish, kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlashda ushbu yo'nalishdagi faoliyat bilan bog'liq jarayonlarni rivojlantirish ilmiy asosi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xizmat ko'rsatish korxonalarining strategik rivojlanish dasturini shakllantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish, investitsion resurslardan samarali va maqsadli foydalanish, mutasaddi korxonalarining iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va moliyaviy faoliyatini yo'lga qo'yishda korxonaning xizmat ko'rsatish faoliyatidagi barqarorligini oshirish chora-tadbirlari majmuyini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirishda sug'urta munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

sug'urta kompaniyalari umumiy moliyaviy barqarorlik holatini ta'minlashning imkoniyat va yo'nalishlarini ochib beruvchi mulkiy, moliyaviy, rentabellik va aktivlardan foydalanish yuzasidan xususiy ko'rsatkichlarning "almashinib turuvchi ustuvorligi" tamoyiliga asoslangan uslubni qo'llash orqali sug'urta munosabatlarini takomillashtirish taklifi "Alskom sug'urta kompaniyasi" AJning xizmat ko'rsatish faoliyatiga joriy etilgan ("Alskom sug'urta kompaniyasi" AJning 2023-yil 23-martdagi 03-438-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonaning umumiy barqarorlik holati ko'rsatkichini 2023-yilda 0,24 punktga oshirish maqsadga muvofiqligi belgilangan;

sugʻurta munosabatlarida risklarni baholash uchun ehtimollik va taʼsir matritsasi asosida sugʻurta kompaniyalari tomonidan maqbul hisoblangan risk darajasini ifodalovchi riskni qabul qilish mezonlarini ishlab chiqishda riskni maqbul boshqarishning $0 \leq 0,25$ chegarasida “riskni qabul qilish”, $0,26 \leq 0,5$ chegarasida “riskni oʻtkazish”, $0,51 \leq 0,75$ chegarasida “riskni yumshatish”, $0,75 \leq 1,0$ chegarasida “riskdan qochish” strategiyalarini qoʻllash taklifi “Alskom sugʻurta kompaniyasi” AJning xizmat koʻrsatish faoliyatiga joriy qilingan (“Alskom sugʻurta kompaniyasi” AJning 2023-yil 23-martdagi 03-438-sonli maʼlumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi korxonada risklarni boshqarish tizimining tartibga tushishida muayyan darajada xizmat qilgan;

“Alskom sugʻurta kompaniyasi” AJning raqobatbardoshlik strategiyasini ishlab chiqish algoritmining sugʻurta bozorida raqobat muhitini taʼminlashdagi axborot, tahlil va boshqaruv jarayonlarini oʻz-oʻzini tartiblovchi mustaqil maydonlar koʻrinishida shakllantirish asosida takomillashtirish taklifi “Alskom sugʻurta kompaniyasi” AJning Iqtisodiy tahlil boʻlimida foydalanilgan (“Alskom sugʻurta kompaniyasi” AJning 2023-yil 23-martdagi 03-438-sonli maʼlumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonaning raqobatbardoshligini taʼminlashda 0,5 ballik tizimga erishish maqsadga muvofiqligi asoslangan va 2022-yilda mahsulot sotishdan tushgan sof tushum hajmi 85,3 mlrd. soʻmga ortgan;

Oʻzbekistonda sugʻurta munosabatlari rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillar korrelyatsiyasini ifodalovchi ekonometrik model asosida tarmoq sof foydasi hajmi dinamikasining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz koʻrsatkichlaridan “Alskom sugʻurta kompaniyasi” AJning Iqtisodiy tahlil boʻlimida foydalanilgan (“Alskom sugʻurta kompaniyasi” AJning 2023-yil 23-martdagi 03-438-sonli maʼlumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonaning xizmatlar koʻrsatishdan tushgan sof foyda hajmini 2030-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 1,75 baravarga oshirish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 5 ta ilmiy ish eʼlon qilingan. Shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

o
,
t


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotni rivojlantirishda sug‘urtaning mohiyati va uning ustuvorligi”** deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda sug‘urtaning o‘rni va mohiyati, sug‘urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurati, O‘zbekistonda sug‘urta munosabatlarining me‘yoriy-huquqiy asoslari yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan chuqur e’tirof etilmoqda. Xususan, 2021-yil 23-noyabr kuni “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi”⁶ 730-sonli O‘zbekiston Respublikasining qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli qarori soha rivojiga xizmat qilib kelmoqda.

Bugungi kunda sug‘urtaning iqtisodiy mohiyatini yoritishda mahalliy hamda ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan ta’riflar keltirib o‘tilgan. Xususan, R.T.Yuldashev, A.A.Gvozdenko, I.X.Aduraxmonov, Q.Qo‘ldoshev kabi olimlar sug‘urtaning iqtisodiy mohiyatini ochib berib, o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar. Olimlarning fikridan kelib chiqqan holda sug‘urta munosabatlari tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “Sug‘urta munosabatlari ma’lum bir xavfdan yetkaziladigan zararni qoplashga hamda bu uchun to‘lovni amalga oshirishga rozi bo‘lgan bir necha shaxslarning iqtisodiy aloqalaridir”. Bunda sug‘urta munosabatlarining birlamchi asosiy tushunchasi yuzaga kelmoqda (1-rasm).



1-rasm. Sug‘urta munosabatlarining birlamchi tuzilmasi⁷

1-rasmda sug‘urta munosabatlarining yuzaga kelishida sug‘urta xizmatlarini taqdim qiluvchi sug‘urta kompaniyalari – sug‘urtalovchi va sug‘urta xizmatlariga ehtiyoji mavjud jismoniy va yuridik shaxslar – sug‘urtalanuvchilarning shartnomaviy munosabatga kirishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuni ta’kidlash joizki,

⁶ <https://lex.uz/docs/5739117>

⁷ Muallif ishlanmasi.

sug'urta munosabatlarining, ya'ni sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi sug'urta manfaatiga qurilgan iqtisodiy aloqaning muvaffaqiyati va samarasi bir qator shartlarni talab qiladi. Bunda sug'urta vositachilari, sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy asos, sug'urta faoliyati ustidan davlat nazorati, sug'urta bozori rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi keng ma'nodagi sug'urta munosabatlarini namoyon qiladi deb, hisoblaymiz.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida sug'urtaning rivojlanish bosqichlari va solishtirma tahlili⁸

<p>Mustaqillikkacha bo'lgan davr (1900-1990)</p>	<p>Dastlab davlat idoralari, ulgurji savdo va transport korxonalari binolari, paxta va yog' zavodlarini, asosan, yong'in hamda boshqa falokatlardan sug'urta qilishgan; sug'urta tizimi monopoliyaga asoslanib, Gosstrax tomonidan markazlashgan hamda raqobat mavjud bo'lmagan; monopoliya hisobiga risklarning oldini olish darajasi past bo'lgan; sug'urtalanuvchilarning xavf sinflari bo'yicha deyarli sinflarga ajratilmagan.</p>
<p>Mustaqillikning ilk yillari (1991-1997)</p>	<p>Bir qancha sug'urta kompaniyalari tashkil etilib, raqobat shakllana boshlangan; tarif koeffitsiyentlari risklarga asoslangan; sug'urtalanuvchilarning sug'urta turlari bo'yicha yirik sinflarga bo'lingan; 1992-yil 31-dekabrda VM-65-sonli qarori bilan "O'zbekiston davlat sug'urta organlari to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi hamda unga muvofiq "O'zdvusug'urta" bosh boshqarmasi tashkil etildi; 1993-yilda "Sug'urta to'g'risida"gi qonun qabul qilingan; 1994-yilda "O'zbekinvest" milliy SK tashkil etilgan; manbalarga ko'ra, ushbu davrda 60 ga yaqin sug'urta kompaniyalari bo'lgan.</p>
<p>Sug'urtaning mustaqil huquqiy institut sifatida shakllanish davri (1997-2002)</p>	<p>Kompaniyalar soni ortishi natijasida raqobat jadallashgan; xavf (risk) omillarining o'zaro ta'siri bazaviy hisobga olingan; sug'urtalanuvchilarning sug'urta turlari bir nechta sinflarga bo'lingan; 1998-yil sug'urta faoliyati nazorati funksiyalari Moliya vazirligi zimmasiga yuklatilib, uning huzurida Sug'urta bozori davlat inspeksiyasi tashkil etilgan; 1997-yilda "Fuqarolik kodeksi" joriy etilishi hamda 2002-yildagi "Sug'urta to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish kiritilishi munosabati bilan nodavlat sug'urta kompaniyalarining rivojiga hissa qo'shilgan; barcha sug'urta kompaniyalari 3 yilga foyda (daromad) solig'idan ozod etilgan; ilk bor sug'urta kompaniyalarining minimal ustav kapitali belgilab qo'yilgan.</p>
<p>Yurtimizda sug'urta sektorini liberallashtirish (2003-2020)</p>	<p>2007-yil 27-noyabrda PQ-413-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror bilan sug'urta bozori professional qatnashchilari uyushmasi tashkil etilgan; ko'plab xususiy kompaniyalarning raqobati va ular ustidan nazorat kuchaytirilgan; 2008-yil 21-aprelda "Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingan; 2009-yil 16-aprelda O'RQ-210-sonli "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingan; 2015-yil 26-mayda O'RQ-386-sonli "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan; 02.08.2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tashkil etilgan.</p>
<p>Yurtimizda sug'urta sektorini raqamlashtirish (2021-y.dan – hozirgi kungacha)</p>	<p>2021-yil 23-noyabrda O'RQ-730-sonli "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi; 2020-yil 12-noyabrda PQ-4890-sonli "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urta mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga muvofiq majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish amalga oshirila boshlandi; 2021-yil 23-oktabrda PQ-5265-sonli "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaror qabul qilindi.</p>

1-jadvalda O'zbekiston sug'urta bozori, asosan, iqtisodiy o'tish davri mobaynida shakllanganini ko'rishimiz mumkin. Biz milliy sug'urtaning

⁸ Muallif ishlanmasi.

rivojlanishini quyidagi bosqichlarga ajratdik: mustaqillikkacha bo‘lgan davr (1900-1990), mustaqillikning ilk yillari (1991-1997), sug‘urtaning mustaqil huquqiy institut sifatida shakllanish davri (1997-2002), sug‘urta sektorini liberallashtirish davri (2003-2020), sug‘urta sektorini raqamlashtirish (2021-yildan – hozirgi kunga qadar).

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi tahlili, moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish tahlili, iqtisodiyot taraqqiyoti va yangi risklarning shakllanishi, ularni sug‘urtalash kabi masalalar ko‘rib chiqilgan va baholangan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining O‘zbekiston sug‘urta bozorining 2022-yil yakuni bo‘yicha bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, sug‘urta bozori ishtirokchilarining umumiy ustav kapitali 1,88 trln. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin. Quyida “Alskom sug‘urta kompaniyasi” AJ (keyingi o‘rinlarda – Alskom) hamda “My-insurance” AJ (keyingi o‘rinlarda – My-insurance) kompaniyalarining moliyaviy tahlillarini keltirib o‘tamiz.



2-rasm. 2019-2022-yillarda sug‘urta kompaniyalari jami aktivlarining yillik o‘shish sur‘ati, mln. so‘mda⁹

Grafik ma‘lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, har ikkala sug‘urta kompaniyalari aktivlari o‘shish tendensiyasiga ega. Xususan, 2018-yilda “Alskom” sug‘urta kompaniyasining jami aktivlari 86 685,5 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 138 418,8 mln. so‘mga ortgan. Bunday o‘shish “My-insurance” sug‘urta kompaniyasida ham mavjud bo‘lib, o‘tgan besh yil mobaynida deyarli uch baravarga ortganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda joriy aktivlarning ortishi, xususan, tovar-moddiy boyliklar zaxiralari, materiallar, tugallanmagan xizmatlar, kelgusi xarajatlar, kechiktirilgan xarajatlar hamda debitorlarning ortishi kompaniyaning faoliyatiga ta‘sir qiladi. Chunki har ikkala kompaniya aktivlarining o‘shishi sug‘urta xizmatlarini sifat jihatdan modernizatsiyalash orqali bozordagi raqobat mavqeyini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, kompaniyalarning moliyaviy barqarorligiga ta‘sir etishi mumkin.


⁹ Kompaniyalar ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.



3-rasm. 2019-2022-yillarda “Alskom” va “My-insurance” kompaniyalari faoliyatining sof foydasi, mln. so‘m¹⁰

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ko‘rinib turibdiki, 2019-2022-yillarda kompaniyalar sof daromadining miqdori hisobot davri yakuni bo‘yicha shakllantirilgan ma’lumotlarga ko‘ra kuchli tafovutga ega bo‘lgan (3-rasm). Ushbu tafovut chizig‘ining 2020-yildagi pasayish nuqtasi “Alskom” bo‘yicha 257,7 mln. so‘mni, “My-insurance” bo‘yicha 596,1 mln. so‘mni tashkil etgan. Bu holatni butun dunyoda kuzatilgan “COVID-19” pandemiyasining global iqtisodiyotga ta’siri natijasi bilan bog‘lash mumkin. Ayni shu davrda sug‘urta mukofoti tushumlari hajmi barqaror saqlanib qolgan bo‘lsa-da, qolgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha xarajatlarning ortishiga olib kelgan hamda mazkur holat kompaniya sof foydasining qiymatida o‘z aksini topgan deyish mumkin.

Quyidagi 4-rasmda kompaniyalar daromad ko‘rsatkichlarining asosiy faoliyat, investitsion hamda moliyaviy faoliyatlar bo‘yicha tahlillari keltirilgan bo‘lib, har ikkala kompaniya uchun ham 2019-2022-yillar mobaynida asosiy faoliyat ko‘rsatkichi zararni ko‘rsatmoqda. Shunga qaramay, moliyaviy natija musbat ko‘rsatkichlarda aks etgan. Bu kabi asosiy faoliyatning zarar ko‘rganlik holati sug‘urta kompaniyalariga xos bo‘lib, jahon amaliyotida hayotni sug‘urtalash yo‘nalishidagi jamg‘arma sug‘urta mahsulotlarining investitsion elementiga bog‘liq.



4-rasm. 2019-2022-yillarda “Alskom” va “My-insurance” kompaniyalari daromadlari¹¹

¹⁰ Sug‘urta kompaniyalari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

¹¹ Kompaniya ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Rasmda ko‘rinib turganidek, 2022-yilda “Alskom”da sug‘urta mukofotlari tushumi o‘tgan yilga nisbatan 82 foizga, pul miqdorida esa 90 938 mln. so‘mga ortishiga qaramay, kompaniyaning asosiy faoliyat natijasi zarar bilan yakunlangan va o‘tgan yilda ko‘rilgan 4 mlrd. so‘m zararga nisbatan 2022-yilda zarar miqdori qo‘shimcha ravishda yana 2 mlrd. so‘mga ortgan. Investitsion va moliyaviy daromadlar ham o‘tgan yilga nisbatan pasaygan.

“My-insurance” sug‘urta kompaniyasida so‘nggi yillarda moliyaviy va investitsiya faoliyatida barqarorlik ta‘minlangan. Lekin kompaniyada ham asosiy faoliyat zarar bilan yakunlangan bo‘lib, buni asosiy faoliyatda xarajatlar ulushining yuqori bo‘lgani bilan bog‘lash mumkin. Xususan, 2022-2021-yillarda xarajatlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan. Kompaniya moliyaviy daromadlar bo‘yicha so‘nggi yilda yuqori ko‘rsatkichga erishib, 2022-yil yakuniga ko‘ra ushbu ko‘rsatkich 486,9 mln. so‘mni tashkil etgan. Investitsion faoliyatdan 2021-yilda 12309,7 mln. so‘m miqdorida daromad, 2022-yilda esa 9 042,2 mln. so‘m daromad olgan.

Sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini baholash metodologiyasidan foydalanish uchun ko‘rsatkichlar tarkibini saralab olish lozim. Biz mahalliy olimlar hamda Internet ma‘lumotlarining hisoblash namunalaridan foydalangan holda tanlangan kompaniyalarning moliyaviy holatini baholab chiqdik. Bular:

1. Likvidlik va qoplash ko‘rsatkichlari.
2. Moliyaviy barqarorlik: moliyaviy mustaqillik; qaramlik, o‘z mablag‘lari manbai va majburiyatlar nisbati, manyovrlilik koeffitsiyenti va shu kabilar.
3. Rentabellik ko‘rsatkichlari.

Dastlab joriy, tezkor, mutlaq likvidlik hamda qoplash koeffitsiyenti ko‘rsatkichlari hisoblanib, ularni umumlashtiruvchi “Layoqatlilik ko‘rsatkichi”ni hisoblab chiqamiz.

2-jadval

“Layoqatlilik ko‘rsatkichi”ning hisoblangan qiymatlari¹²

Ko‘rsatkich nomi	Alskom					My-insurance				
	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Layoqatlilik ko‘rsatkichi	5,5	26,47	13,96	10,01	3,3	1,7	3,7	5,5	8,7	3,3

Korxonaning moliyaviy barqarorligiga baho berishda avtonomiya, moliyaviy qaramlik, o‘z va qarz mablag‘lari nisbati, o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik, manyovrlilik, xususi kapitalni jamlash koeffitsiyentlariga muhim ahamiyat qaratiladi¹³. Shu nuqtayi nazardan, kompaniyalarning “moliyaviy barqarorlik” ko‘rsatkichida moliyaviy mustaqillik, o‘z mablag‘larining majburiyatlarga nisbati, moliyaviy qaramlik, jalb qilingan sarmoyaning jamlanganlik koeffitsiyenti hamda xususi kapitalning manyovrlilik koeffitsiyentlari asosida hisoblandi.

¹² Kompaniyalar ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

¹³ Рахимов М.Й., Каландарова Н.Н.. Молиявий таҳлил. Дарслик. – Т.: Иктисод-молия, 2019. 365-б.

3-jadval

“Moliyaviy barqarorlik”ning hisoblangan qiymatlari¹⁴

Ko‘rsatkich nomi	Alskom					My-insurance				
	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Moliyaviy barqarorlik	2,2	0,71	0,64	0,78	0,92	1,3	1,17	1,09	0,98	1,13

Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan tashqari kompaniya faoliyatiga rentabellik ko‘rsatkichlari yordamida ham baho berilib, uning yuqori bo‘lishi turli aktivlarni sotib olish imkoniyatini yaratadi. Rentabellik – nemis tilidagi “rentabel” – “daromadlilik”, “foydalilik” degan ma’nolarni anglatadi. Rentabellikning aktivlar, ishlab chiqarish, sotuv va kapital kabi bir nechta rentabellik guruhlari mavjud bo‘lib, dissertatsiya ishida muallif tomonidan eng muhim rentabellik ko‘rsatkichlari hisoblandi. Aniqlangan ko‘rsatkichlar yordamida “Kompaniya rentabellik holati” hisoblandi.

4-jadval

“Rentabellik holati”ning hisoblangan qiymatlari¹⁵

Ko‘rsatkich nomi	Alskom					My-insurance				
	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Rentabellik holati	0,002	0,09	0,007	-0,06	0,03	0,02	0,02	0,04	0,1	0,03

Yuqorida keltirilgan uchta ko‘rsatkichning birlashtirilishi natijasida quyidagi “sug‘urta kompaniyalarining umumiy barqarorlik holati ko‘rsatkichi” shakllantirildi va formulani quyidagicha ifodalash mumkin:

$$SUB = \sqrt[3]{L * M * R} \quad (1)$$

Bu yerda: L – layoqatlilik ko‘rsatkichi; M – moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichi; R – rentabellik holati.

5-jadval

Sug‘urta kompaniyalarining “almashib turuvchi ustuvorligi” tamoyiliga asoslangan uslubning hisoblangan qiymatlari¹⁶

Ko‘rsatkich nomi	Alskom					My-insurance				
	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
“Sug‘urta kompaniyalarining almashib turuvchi ustuvorligi”	0,33	0,17	0,06	-0,47	0,09	0,35	0,08	0,24	0,85	0,11

Bu ko‘rsatkichlarning bir me‘yoriy chegarasi sifatida 0,1-1 oraliqni olish maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi. Ya’ni aynan ushbu ko‘rsatkich amaliyotga joriy qilinishi natijasida “Alskom”ning umumiy faoliyati barqarorligini 2023-yilda 0,24 punktga oshirish mumkinligi asoslangan. Bunday deyishimizga qo‘shimcha sabab kompaniyaning 2018-yilda xuddi shunday natijaga erishganidir. Xuddi

¹⁴ Kompaniyalar ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

¹⁵ O‘sha manba.

¹⁶ O‘sha manba.

shunday, “My-insurance” sug‘urta kompaniyasida ham 2021-yildagi yuqori ko‘rsatkichga asoslangan holda umumiy faoliyati barqarorligini 2023-yilda 0,74 punktga oshirish mumkin, deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonda sug‘urta munosabatlarini istiqbolli rivojlantirish yo‘nalishlari” deb nomlangan uchinchi bobida sug‘urta munosabatlarini takomillashtirishda risklarni boshqarishni maqbullashtirish, “Alskom sug‘urta kompaniyasi” AJning raqobatbardoshlik strategiyasi algoritmini ishlab chiqish, “Alskom sug‘urta kompaniyasi” AJda ekonometrik modellarni qo‘llash asosida sug‘urta munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan.

Riskni qabul qilish mezonlari sug‘urta kompaniyalari tomonidan maqbul deb hisoblangan risk darajasidir. Ushbu maqbul risk darajasiga muvofiq O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari uchun riskni maqbul boshqarishning to‘rtta asosiy strategiyasini taklif etdik:

- riskni qabul qilish;
- riskni o‘tkazish;
- riskni yumshatish;
- riskdan qochish.

6-jadval

Ehtimollik va ta’sir matritsasi asosida O‘zbekiston sug‘urta munosabatlarida risklarni sifat jihatidan baholash¹⁷

		Ta’sir etish darajasi					
		Ko‘rsatkichlar	Ahamiyatsiz oqibatlar	Kichik oqibatlar	O‘rta oqibatlar	Jiddiy oqibatlar	Juda jiddiy oqibatlar
Ehtimollar	Juda past ehtimollik 0-20 %	Kichik darajadagi risk	O‘rta darajadagi risk				
	Past ehtimollik 21-40 %	Kichik darajadagi risk	Kichik darajadagi risk	Kichik darajadagi risk	Kichik darajadagi risk	O‘rta darajadagi risk	O‘rta darajadagi risk
	O‘rta ehtimollik 41-60 %	Kichik darajadagi risk	Kichik darajadagi risk	Kichik darajadagi risk	O‘rta darajadagi risk	O‘rta darajadagi risk	Kritik darajadagi risk
	Yuqori ehtimollik 61-80 %	Kichik darajadagi risk	O‘rta darajadagi risk	O‘rta darajadagi risk	O‘rta darajadagi risk	Kritik darajadagi risk	Kritik darajadagi risk
	Juda yuqori ehtimollik 81-100 %	Kichik darajadagi risk	O‘rta darajadagi risk	O‘rta darajadagi risk	Kritik darajadagi risk	Kritik darajadagi risk	Kritik darajadagi risk

Manba: riskning ikkita – ehtimol va oqibat parametrlari bo‘yicha aniqlanadigan darajalariga umumqabul qilingan yondashuv ehtimollik va ta’sir matritsasi asosida muallif tomonidan O‘zbekiston sug‘urta bozori sharoitiga moslashtirilgan.

Yuqoridagi 6-jadvalda sug‘urta kompaniyalari uchun ehtimollar va ta’sirlar matritsasiga ko‘ra ehtimollik hamda ta’sirning har bir kombinatsiyasi uchun yuqori va quyi chegara darajasi belgilab olindi va matritsa ishlab chiqildi. Bu yerda:

Kichik darajadagi risk – uning natijasidagi salbiy oqibatlar yuqori emas hamda sodir bo‘lish ehtimoli kam bo‘lgan risklar.

¹⁷ Umumqabul qilingan ehtimollik va ta’sir matritsasi asosida muallif ishlanmasi.

O‘rta darajadagi risk – oqibati va ehtimoli nisbatan ko‘proq bo‘lib, ushbu riskni qabul qilgan taqdirda ham korxonada faoliyatiga jiddiy ta’sir etmaydi.

Kritik darajadagi risk – korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, risk darajasini aniqlashda sug‘urta kompaniyalarining to‘lov qobiliyati va iste’molchilar talabiga ta’sir etuvchi omillarning yuzaga kelish ehtimoli va uning oqibatida kompaniya daromadining o‘zgarishini qamrab olish ko‘zda tutildi. “Alskom sug‘urta kompaniyasi” AJning ko‘rilmagan (olinmagan) daromad bilan bog‘liq risklarini tahlil qilishda sug‘urta amaliyotlari va investitsion faoliyat bilan bog‘liq risklarning sof foydaga ta’sirini o‘rganish muhim.

7-jadval

“Alskom sug‘urta kompaniyasi” AJning 2018-2022-yillardagi investitsion portfelning tarkibiy tuzilmasi, foizda¹⁸

Yillar	Depozitlar	Aksiyalar	Ko‘chmas mulk	Ustav kapital ulushida qatnashish	Berilgan zayomlar	Boshqa investitsiyalar
2018	51,4	11,5	18,6	14,9	1,6	2
2019	50,9	11,7	19,6	15	1,2	1,7
2020	54,3	10,5	16,8	16,8	0,3	1,3
2021	56	10	15	16	2	1
2022	57	10,3	17	14	1	0,7

Yuqoridagi jadvaldan ma’lum bo‘lmoqdaki, boshqa sug‘urta tashkilotlari kabi kompaniyaning asosiy jamg‘armasi omonatlarga yo‘naltirilmoqda. Buning sababi – omonatlar likvidlik darajasining yuqori ekanligi, deb ta’kidlashimiz mumkin. Bu yerda 2022-yil yakunlariga ko‘ra investitsion portfelning 57 foizini depozitlar tashkil qilmoqda va 5 yillik dinamikada 50-57 foizni tashkil qilgan.

8-jadval

“Alskom sug‘urta kompaniyasi” AJ sof foydasining shakllanishi dinamikasi, mlrd. so‘m¹⁹

Ko‘rsatkichlar	Foyda			Zarar		
	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Asosiy faoliyat	-	-	-	-8,07	-4,0	-6,1
Investitsion faoliyat	8,33	8,8	7,6	-	-	-
Sof foyda	0,2	4,8	1,5	-	-	-

